BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

SO‘ZLAR OLAMI: LEKSIKOLOGIYANING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Namangan davlat universiteti dotsenti
Muxammadiyeva Xalima Saidaxmadovna
Namangan davlat universiteti Jahon tillari fakulteti
1-bosqich talabasi
Turdimuhamadova Fotimaxon Komilxon qizi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20382616

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan leksikologiya va uning o‘rganish ob’ekti — leksemalar haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot davomida leksikologiyaga yondosh bo‘lgan semasiologiya, onomastika, etimologiya, frazeologiya va leksikografiya kabi sathlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning til tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kishi ismlari, joy nomlari hamda iboralarning shakllanishi kabi jarayonlar ilmiy manbalar va hayotiy misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *leksikologiya, leksema, semasiologiya, onomastika, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, sinonim, omonim, ibora.*

ANNOTATION

This article discusses lexicology, one of the fundamental branches of linguistics, and its object of study — lexemes. The research analyzes the specific characteristics, roles, and significance within the language system of related fields such as semasiology, onomastics, etymology, phraseology, and lexicography. Furthermore, processes such as the formation of personal names, place names, and idioms are highlighted using scientific sources and practical examples.

Keywords: *lexicology, lexeme, semasiology, onomastics, etymology, phraseology, lexicography, synonym, homonym, idiom.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются теоретические основы лексикологии как центрального раздела лингвистики и её основной объект изучения — лексема. Автор анализирует взаимосвязь лексикологии с такими смежными дисциплинами, как семасиология, ономастика, этимология, фразеология и лексикография. Особое внимание уделяется смысловой структуре слов, происхождению имен собственных и географических названий, а также экспрессивным возможностям фразеологизмов. Исследование подкреплено научными трудами ведущих лингвистов и практическими примерами, что позволяет глубже понять системный характер словарного состава языка.

Ключевые слова: *лексикология, лексема, семасиология, ономастика, этимология, фразеология, лексикография, синоним, омоним, идиома.*

KIRISH

Til — bu shunchaki muloqot vositasi emas, balki to‘xtovsiz harakatdagi tirik mexanizmdir. Bu mexanizmning yuragi esa **leksikologiya**, ya’ni so‘zlar olamidir. Biz har kuni minglab so‘zlarni ishlatamiz, lekin ularning ortida qanchalik ulkan tizim turganini har doim ham his qilavermaymiz. Jamiyatda nimaiki yangilik yuz bersa, eng birinchi bo‘lib tilning lug‘at boyligida aks etadi. Shuning

uchun ham leksikologiyani o‘rganish — bu shunchaki so‘zlarni yodlash emas, balki tilning ichki dunyosini anglash demakdir. Leksikologiya o‘z ichiga juda qiziqarli va rang-barang sohalarni qamrab oladi. Masalan, so‘zlarning ma’no qatlamlarini **semasiologiya** orqali kashf etsak, ularning kelib chiqish tarixini **etimologiya** yordamida kuzatamiz. Nutqimizga ko‘rk beradigan iboralarni **frazeologiya** o‘rgatsa, ism-shariflar va joy nomlari ortidagi sirlarni **onomastika** ochib beradi. Bu bilimlarning barchasi esa yakunda lug‘at bo‘lib, ya’ni **leksikografiya** shaklida bizga taqdim etiladi. Ushbu maqolada biz leksikologiyaning mana shu "shoxobchalari" bir-biri bilan qanday bog‘langanini va ular tilning mukammalligini ta’minlashda qanchalik muhimligini sodda va tushunarli tilda tahlil qilishga harakat qilamiz.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yozishda mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun bir qator muhim manbalar va metodlarga tayanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda Muhammadabbos Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” asari hamda Ra’no Sayfullayevaning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklaridagi leksikologiya va uning tarkibiy qismlariga oid fundamental qarashlar qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, ma’lumotlarni tizimlashtirish va zamonaviy talqinlarni o‘rganish maqsadida Nargiza Erkaboyeva va Xolida Abdusattorovaning “O‘zbek tilidan ma’ruzalar to’plami” hamda Wikipedia ochiq ensiklopediyasidagi elektron resurslardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida asosan tavsifiy va tizimli yondashuv metodlari qo‘llanilib, tilshunoslikning onomastika, frazeologiya va semasiologiya kabi sohalari o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikda tahlil qilindi. To‘plangan nazariy ma’lumotlar adabiy manbalar bilan qiyoslanib, olingan natijalar asosida umumiy xulosalar shakllantirildi.

Leksikologiya bu- grekcha tildan olingan bo’lib, “lexikos”- “so’zga oid”, “logos”- “ta’limot” degan ma’noni bildiradi va so’z tarkibini o’rganadi. Leksikologiyani o’rganish manbai- leksema ya’ni so’z [4. B-83]. So’zni o’rganish bo’yicha leksikologiya bir necha tarkibiy qismlarga bo’linadi va bu qismlarni leksikologiyaga yondosh sathlar deb ham yuritiladi. Bu tarkibiy qismlarning o’ziga xos mazmun-mohiyati mavjud hamda har birini misollar bilan ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

“Semasiologiya” (yunoncha “semasia”- ma’no, mazmun) tilning, til birliklarining hissiy idrok etadigan tomoniga, tovush, akustik yoki grafik ko’rinishiga qarshi qo’yiladigan ma’no tomonini va shuningdek, leksik unsurlar ya’ni morfema va so’zlarning mazmuni haqidagi fan hisoblanadi. Tilning hissiy idrok etadigan tomoni- sinonimlar. Misol qilib, yemoq so’zi ovqatlanmoq, tanovul qilmoq, iste’mol qilmoq kabi ma’nodoshlari mavjud. Tovush, akustik tomoni- paronimlar ya’ni talaffuzi bir-biriga o’xshash so’zlarga adip-adib, da’vo-davo singari so’zlarni misol qilib keltirish mumkin. Uchinchisi, grafik ko’rinishiga qarshi qo’yiladigan ma’no tomoni- omonimlar ya’ni bir so’zning bir necha ma’nolarda qo’llanishi: suz- suvda suzmoq, suz- ovqatni suzmoq, suz- sigir suzmoq kabi. **“Onomastika”** (yunoncha “opot- ism, onomastika- ismga bog’liq) tilshunoslikda ot so’z turkumiga mos keladi. Onomiya turli xil nomlash guruhlariga bo’linadi:

•**Antroponimiya**- odamlarning ismini ilmiy jihatdan o’rganadi: Navro’z bayrami arafasida tug’ilgan chaqaloqqa Navro’zbek yoki Navro’za, Ramazon oyida tug’ilganlarga- Ramazon, to’rtinchi farzand bo’lsa- Robiya va shunga o’xshash ismlarning kelib chiqish tarixini o’rganadi. Antroponimlarni o’rgangan olim Ernest Begmatov bo’lib, “Kishi nomlari imlosi”(1970y.), “O’zbek ismlari imlosi”(1972y.) kitoblari bu sohadagi qimmatli manba hisoblanadi. 1999-yili nashr etilgan “O’zbek ismlari” kitobida 14600 ta ismga izoh berilgan [2. B-154].

•Toponimika- geografik nomlarini o’rganadi: To’rtko’l, Qashqadaryo, Kitob, Sirdaryo kabi.

•Etnonimika-

millatlarning nomlarini o'rganadi: qirg'iz, o'zbek, qozoq, ingliz va hkz.

•Zoonimika- hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar: mushuk- Baroqvoy, ot-Tarlon [2. B-157].

•Gidronimiya- suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar: Orol dengizi, Norin daryosi [2. B-157]. **"Etimologiya"** (haqiqat va ta'limot)- 1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi fan; 2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui. XIX asrdan buyon "etimologiya" tushunchasi "grammatika" ma'nosida qo'llangan. Bu soha yasama, qo'shma va xorijiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlar ma'nolarining kelib chiqishi va tarixini o'rganadi.

"Frazeologiya" bu- grek tilidagi ikkita so'zdan "phraseos"- "ifoda" va "logos"-"ta'limot" so'zlaridan tashkil topgan. Bu sathning vazifasi esa ibora hosil qilishdir. Ibora- ma'nosi bir so'zga teng keladigan gap yoki so'z birikmalari. Iboralar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq- ahil bo'lmoq

Ko'ngli joyiga tushmoq- tinchimoq

"Leksikografiya"- (grekcha, "lexikos"-"so'z" va "grapho"- "chizmoq") lug'atchilik degani. Ya'ni bo'limning vazifasi barcha tilimizdagi so'zlarning lug'atini o'rganishdir. Anatol Fransning yozishicha, "lug'at- alfavit tartibida joylashtirilgan voqelikdir.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqotimiz davomida leksikologiyaning keng qamrovli tizim ekanligi va uning har bir tarmog'i tilning boyligini turli tomondan ochib berishi ma'lum bo'ldi. Olingan natijalarni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin: Birinchidan, **semasiologiya** sohasini o'rganish orqali so'zlarning ma'no dunyosiga kirdik. Misol uchun, "yemoq" so'zining "ovqatlanmoq", "tanovul qilmoq" kabi sinonimlari tilimizning naqadar boyligini ko'rsatsa, "adip-adib" kabi paronimlar talaffuzdagi noziklikni, "suz" kabi omonimlar esa birgina shakl ortida bir necha xil tushuncha (harakat, taom suzish, hayvon suzishi) yashirinligini isbotlaydi.

Ikkinchidan, **onomastika** sohasida kishi ismlari (antroponimika) va joy nomlari (toponimika) shunchaki nom emas, balki tarixiy xotira ekanligini ko'rdik. E. Begmatovning tadqiqotlariga tayangan holda aytish mumkinki, "Navro'zbek" yoki "Robiya" kabi ismlar shaxsning qachon va nechanchi farzand bo'lib tug'ilganini anglatuvchi madaniy kodlardir. Shuningdek, geografik nomlar (Toponimika) va suv havzalari nomlari (Gidronimiya) orqali xalqimizning yer-suvga bo'lgan munosabati aks etadi. Uchinchidan, so'zlarning "shajarasi"ni o'rganuvchi **etimologiya** va nutqimizga jilo beruvchi **frazeologiya** sohalari tilning tarixiy hamda badiiy quvvatini ko'rsatadi. "Bir yoqadan bosh chiqarmoq" kabi iboralar xalqimizning birlik va ahillik haqidagi falsafasini bitta so'z birikmasiga jamlay olgan. Bu barcha boyliklar esa yakunda **leksikografiya**, ya'ni lug'atchilik sohasida tartibga solinadi. Anatol Frans aytganidek, lug'atlar — bu alifbo tartibidagi butun bir koinotdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, leksikologiya shunchaki so'zlar haqidagi fan emas, balki tilning yashash tarzini o'rganuvchi murakkab va qiziqarli tizimdir. Tadqiqotimiz davomida leksikologiyaga yondosh bo'lgan beshta asosiy sathning har biri o'zining mustaqil vazifasiga ega bo'lsa-da, ular birgalikda tilning butunligini ta'minlashini anglab yetdik. Semasiologiya ma'no noziklikliarini, onomastika nomlash an'analarini, etimologiya tarixni, frazeologiya nutqiy boylikni va leksikografiya bularning barchasini tartibga solishni zimmasiga olgan. Talaba sifatida shuni ta'kidlashim kerakki, ushbu sohalarni o'rganish bizga nafaqat to'g'ri gapirishni, balki har bir so'z ortida yotgan ulkan madaniyat va tarixni his qilishni o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadabbos Irisqulov. Tilshunoslikka kirish- Yangi asr avlodi, 2009y. 263b.
2. Nargiza Erkaboyeva, Xolida Abdusattorova. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami 2023y. 679b.
3. Ra'no Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili- Toshkent. 2009y. 414b.
4. uz.m.wikipediya.org.